


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGIABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

RELELI HIMOYA VA AVTOMATIKASI
fanidan laboratoriya ishlarini bajarish uchun
uslubiy qo'llanma



Tuzuvchilar: dots. I.X.Siddiqov, kat.o‘q. H.F.Shamsutdinov, ass. B.M. Pulatov – “Releli himoya va avtomatikasi” - fanidan uslubiy qo‘llanma - Toshkent, ToshDTU, 2015 – 46 б.

Uslubiy qo‘llanma «Releli himoya va avtomatikasi» fanining asosiy bo‘limlarini o‘z ichiga oluvchi laboratoriya ishlarini bajarish uchun tuzilgan. Laboratoriya ishlari maxsus stendlarda bajariladi. Laboratoriya ishlarini stendlarda bajarilishi natijasida talabalarda fan haqida aniq tasavvurlar shakllangan holda o‘z bilimlarini oshirishadi.

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy – uslibiy kengashi qaroriga muvofiq chop etildi.

Taqrizchilar:

- Taslimov A.D. Toshkent Davlat Texnika Universiteti
«Energetika» fakulteti «Elektr ta’minoti»
kafedrasi mudiri.
- Sadullaev E.F. DAK «Uzbekenergo» MDM boshlig‘i
muovini.

1 - LABORATORIYA ISHI

RT-40 turidagi elektromagnit tok relelarini sinash

Ishdan maqsad: RT-40 turidagi elektromagnit tok relesining ishlash tamoyili va tuzilishini o‘rganish.

Qisqa nazariy ma’lumot. PT-40 turidagi rele releli himoyada nazorat qilinayotgan zanjirdagi tokning o‘zgarishiga ta’sir javob beradi.


Relening magnit tizimi (1.1-rasm) Π -simon shixtalangan magnit o‘zakdan (5) va ikki o‘qda (6) aylanuvchi Γ -simon po‘lat yakordan (3) iborat. Qarshi harakatni ta’minlovchi spiral prujina (7) relening yakorini boshlang‘ich holatda ushlab turadi, uning bir uchi yakor bilan, ikkinchi uchi esa relening o‘rnatma ko‘rsatkichi (8) bilan bog‘langan. Ko‘rsatkich burilganda prujinaning qarshi harakat qiluvchi mexanik momenti o‘zgaradi va shunga mos holda relening ishlash toki ham o‘zgaradi. Shkala (9) da o‘rnatma toklarining qiymati ko‘rsatilgan. Yakorning tepe qismida barabancha (1) joylashtirilgan, uning ichida radial devorchalar bo‘lib, qum (kvars) bilan to‘ldirilgan. Harakatlanuvchi qismning har qanday ravishda tezlanishi natijasida qum zarrachalari harakatga keladi. Yakorga berilgan energiyaning bir qismi qum zarrachalarining ishqalanishiga sarf bo‘ladi. Bu esa harakatlanuvchi qism hamda kontaktlarning tebranishini pasaytiradi. Magnit o‘zakda cho‘lg‘amlar (4) joylashgan bo‘lib, ularning uchlari relening sokoliga chiqarilgan. Ular yordamida cho‘lg‘amlarni parallel yoki ketma-ket ulab, o‘rnatma qiymatini o‘zgartirish mumkin. Shkalada ko‘rsatilgan sonlar cho‘lg‘amlarni ketma-ket ulangan holatiga to‘g‘ri keladi.

Relening ishlash vaqt deb relega ishlash tokidan I_{ish} katta bo‘lgan tok berilishidan boshlab, to uning kontaktlari qo‘shilgunga qadar o‘tgan vaqtga aytildi. Relega berilgan tokning ishlash tokiga nisbati karralik koeffitsiyentini K deyiladi, ya’ni:

$$K = \frac{I_{rele}}{I_{ish}};$$

Ishlash tamoyili. Cho‘lg‘amdan o‘tayotgan tok magnit oqimini hosil qiladi. Oqim yakor va o‘zak orqali o‘tib yakorni magnitlaydi. O‘tayotgan tokning kvadratiga proporsional bo‘lgan elektromagnit kuch F_e ta’sirida

yakor o'zakning kutblariga tortilishi natijasida kontaktlar qo'shiladi. Yakor qo'zg'almas o'zakka tortilishni boshlangandagi tokning qiymati relening ishlash toki deyiladi. Yakor boshlang'ich holga qaytgandagi tokning miqdoriga relening qaytish toki deb ataladi. Qaytish tokining ishlash tokiga nisbati qaytish koeffitsiyenti deyiladi. PT -40 turidagi relelar uchun bu koeffitsiyent 0,8-0,85 ga teng.



1.1 – rasm. PT -40 relesi: a)- relening tuzilishi; b) –qo'zg'almas kontaktlar bilan izolyasiyali kolodka; v) – rostlovchi tugun; 1- temir o'zak; 2 – o'ramlardan iborat bo'lgan cho'lg'am; 3 – yakor; 4 – spiral prujina; 5 – qo'zg'aluvchan kontakt; 6 – chap tayanch; 7 – o'ng juft kontaktlar; 8 – chap juft kontaktlar; 9 – izolyasiyali kolodka; 10 – prujina tutqichi; 11 – shakldor vint; 12 – olti qirrali vtulka; 13 – o'rnatmalar shkalasi; 14 – o'rnatma ko'rsatkichi; 15 – yuqori yarim o'q; 16 – quyro'q; 17 – shakldor plastinka; 18 – prujinalovchi shayba; 19 – kumush tasma bronzali plastinka; 20 – old tayanch; 21 – ort egiluvchan tayanch; 22 – tebranishlarni so'ndirgich; 23 – alyumin ustun.

PT - 40 turdagি relelarning texnik ma'lumotlari:

1. Rele o'rnatma toklari 0,05 A dan 200 A gacha o'zgartiriluvchi to'qqiz turda ishlab chiqariladi.
2. Relening qaytish koeffitsiyenti birinchi o'rnatmada 0,85, qolgan o'rnatmalarda 0,8 dan kam emas.
3. Relening ishlash tokidagi hatolik o'rnatma tokiga nisbatan 5% dan katta emas.
4. Releda bitta ulaydigan va bitta uzadigan kontaktlar bor.
5. Ulanuvchi kontaktning ulash vaqtı tok $1,2I_{ish}$ da 0,1 s gacha va tok $3I_{ish}$ da 0,03 s gacha bo'ladi.
6. Relening iste'mol qiluvchi quvvati relening turiga bog'liq.
7. O'zgarmas tok zanjirida relening kontaktlari quvvati 60 Vt li induktiv yuklamani ularshi mumkin, o'zgaruvchan tok zanjirida esa bu quvvat 300 VA ga teng.

Ish dasturi

1. Relening tuzilishi bilan tanishib chiqing. Rele cho'lg'amlarining parametriga, kontaktlariga, cho'lg'am va kontaktlarning uchlariga e'tibor bering. Relening pasportida ko'rsatilgan ma'lumotlarni yozib oling.
2. Cho'lg'amlarning ketma-ket va parallel ulangan holatlarida shkaladagi barcha o'rnatmalar uchun relening ishlash toki I_{ish} , qaytish toki I_{qay} va qaytish koeffitsiyentini K_{qay} aniqlang.
3. Tokning bir necha karra kattaliklarida relening ishlash vaqtini aniqlang.

PT – 40 relesini sinashda bajariladigan ishlar tartibi.

1. Sinash sxemasi bilan tanishib oling. Sxemada faqat uziq-uziq liniyalar bilan ko'rsatilgan zanjirni yig'ing, chunki qolgan zanjirlar sinashga tayyor. (**1.3 rasm**)
2. Relening ishlash tokini aniqlash.
 - 2.1. PT - 40 relesining eng kichik o'rnatma tokini o'rnating.
 - 2.2. «S» tubmlerni ishlash holatiga keltiring.
 - 2.3. Sxemada ko'rsatilgan uziq-uziq liniyalar bilan ko'rsatilgan zanjirni yig'ing.
 - 2.4. SF avtomatni yoqib sinash sxemasiga kuchlanish bering.
 - 2.5. K1 kalitni «I» toklar zanjiriga o'tkazing.

2.6. Laboratoriya avtotransformatori yordamida tok relesining qo‘zg‘aluvchan kontaktlari o‘z holatini o‘zgartirguncha tok **miqdorini** sekinlik bilan oshirib boring.

2.7. Qo‘zg‘aluvchan kontaktlar o‘z holatlarini o‘zgartirgan lahzada (elektrosekundomerning to‘xtashi) relening o‘rnatilgan $I_{o'm}$ tokidagi ishslash toki I_{ish} hisoblanadi.

2.8. Relening qaytish tokini aniqlash uchun reledagi tok miqdorini I_{ish} tokidan bir muncha kattalashtirib, so‘ngra qo‘zg‘aluvchi kontaktlar boshlang‘ich holatiga qaytguncha kamaytirib borish kerak.

2.9. Qo‘zaluvchan kontaktlar boshlang‘ich holatga qaytgan lahzadagi tok miqdori relening qaytish toki I_{qay} hisoblanadi. O‘lchov natijalarini 1.1 – jadvalga kiritib laboratoriyanı yana 2 marta qaytaring.

2.10. SF avtomat yordamida kuchlanishni uzib, o‘rnatmaning yangi qiymatini o‘rnating va sinovni davom ettiring. O‘lchov natijalarini o‘rtacha qiymatlariga asoslanib, qaytish koeffitsiyentini va relening tok bo‘yicha xatosini aniqlang.

$$K_{qay} = \frac{I_{qay}}{I_{ish}}; \quad \Delta I = \frac{I_{ish, o'rt} - I_{o'm}}{I_{o'm}} \cdot 100\% .$$

bu yerda $I_{ish, o'rt}$ – uch marta o‘lchangan ishslash tokining o‘rtacha arifmetik qiymati, A $I_{o'm}$ – o‘rnatma toki, A.

Natijalarni 1.1 – jadvalga kriting.

1.1 – Jadval

	PT - 40 relesi, $I_{o'm}$ (A),				
I_{ish}	1 o‘lch				
	2 o‘lch				
	3 o‘lch.				
	o‘rtacha				
I_{qay}	1 o‘lch				
	2 o‘lch				
	3 o‘lch				
	o‘rtacha				
	K_{qay}				
	ΔI				

3. Relening ishlash vaqtini aniqlash.
 - 3.1. Releni 1 A li o‘rnatma tokini o‘rnating.
 - 3.2. SF avtomatni yoqib sinash sxemasiga kuchlanish bering.
 - 3.3. K1 kalitni «I» toklar zanjiriga o‘tkazing.
 - 3.4. Laboratoriya avtotransformator yordamida relega berilayotgan tok **miqdorini** karralik 1,2 qiymatga oshirib boring.
 - 3.5. K1 kalitni o‘rta holatga keltirib, sekundomer ko‘rsatkichi boshlang‘ich holatga keltiriladi.
 - 3.6. K1 kalitni «I» holatiga o‘tkaziladi va relening ishlash vaqtini sekundomer orqali aniqlanadi.
 - 3.7. Kalit K1 o‘rta holatga keltiriladi.
 - 3.8. Sekundomer ko‘rsatkichi o‘zining tugmasi orqali boshlang‘ich holatga keltiriladi va laboratoriya yana ikki marta bajariladi. O‘lchov natijalarini 1.2 – jadvalga kiritiladi.
 - 3.9. Karralikning 1,5; 2 va 3 ga teng bo‘lgan qiymatlarida 3.5., 3.6., 3.7., 3.8. **punktlar** qaytadan bajariladi.
 - 3.10. O‘lchovlar natijalari asosida relining o‘rtacha ishlash vaqtini aniqlanadi.

1.2 - Jadval


I _{o‘rn} , (A)					
K		1,2	1,5	2	3
I _R (A)					
t _{o‘rt} (c)	1 o‘lchash				
	2 o‘lchash				
	3 o‘lchash				
	o‘rtacha				

Hisobotni rasmiylashtirish tartibi


1. Rele haqida qisqacha ma’lumot.
2. Sinov sxemalari.
3. O‘lchov natijalari yozilgan jadvallar.
4. Relelarni ishini ko‘rsatuvchi grafiklar:

$$I_{ish\ o‘rt}=f(I_{o‘rn}); \quad I_{qay\ o‘rt}=f(I_{o‘rn})$$

$$\Delta I_{o‘rt}=f(I_{o‘rn}); \quad K_{qay}=f(I_{o‘rn}); \quad t_{ish}=f(K)$$
5. O‘lchov natijalarini texnik ma’lumotlar bilan taqqoslash natijalari.
6. Laboratoriyanidan qilingan xulosa.



1.2 – rasm. Tok relesining ichki ulanish sxemalari



1.3 –rasm. Laboratoriya stendining sinash sxemasi.

Nazorat savollari.

1. Relining ishslash tamoyilini tushuntirib bering.
2. Ishslash tokining o‘rnatmasi qanday o‘zgartiriladi?
3. Ishslash tokini rostlash usullarini tushuntirib bering.
4. Maksimal va minimal relelar deganda nimani tushunasiz?
5. Harakatlanuvchi qismga o‘rnatilgan barabanchaning vazifasi nimadan iborat?
6. Cho‘lg‘amlar parallel ulanganda ishslash toki nima uchun 2 marta ortadi?
7. «Ishslash toki», «qaytish tok»larning ma’nosи nima?
8. Relening ishslash vaqtি nima?


2 - LABORATORIYA ISHI

PH-50 turidagi elektromagnit kuchlanish relesini sinash

Ishdan maqsad: PH-50 turidagi elektromagnit kuchlanish relesining ishlash tamoyili va tuzilishini o‘rganish.

Qisqa nazariy ma’lumot. Kuchlanish relesining tuzilishi tok releniki kabi bo‘lib, unda kontaktlar tebranishini pasaytiruvchi barabancha yo‘q, chunki nazorat qiluvchi zanjirga relening cho‘lg‘ami to‘g‘rilovchi ko‘prik va «R₁», «R₂» rezistorlar orqali ulanadi. Shu usul bilan oqimning o‘zgaruvchan tashkil etuvchisining ta’siri yo‘qotiladi.

Kuchlanish relesining ichki ulanish sxemasi **2.1-rasmida** ko‘rsatilgan. Releda o‘rnatmaning ikki xil diapazoni mavjud. Kichik o‘rnatmalarda rele nazorat qilinayotgan zanjirga volt qo‘shuvchi rezistor orqali ulanadi, katta o‘rnatmalarda esa ketma-ket ulangan R₁ va R₂ rezistorlar orqali amalga oshiriladi.



2.1 – rasm. Kuchlanish relesining ichki ulanish sxemalari.

PH-50 turdagagi relelarning texnik ma’lumotlari:

1. Rele o‘rnatma kuchlanishi 15 V dan 400 V gacha oraliqdagi uch xil tuzilishda ishlab chiqariladi.
2. Kuchlanish bo‘yicha xatolik o‘rnatmaga nisbadan 10 % dan oshmaydi.
3. Qaytish koeffitsiyenti 0,8 dan kam emas.
4. Ulaydigan kontaktning ularash vaqtiga kuchlanish 1,2 U_{ish} ga teng bo‘lganda 0,1 S dan ko‘p emas.
5. Iste’mol qiluvchi quvvat 1 VA dan oshmaydi.
6. Kontaktlari PT-40 relesiniki bilan bir asosda ishlab chiqariladi.

Ish dasturi

1. Relening tuzilishi bilan tanishib chiqing. Rele cho‘lg‘amlarining parametriga, kontaktlariga, cho‘lg‘am va kontaktlarning uchlariga e’tibor bering. Relening pasportida ko‘rsatilgan ma’lumotlarni yozib oling.
2. Cho‘lg‘amlarning ketma–ket va parallel ulangan holatlarida shkaladagi barcha o‘rnatmalar uchun relening ishlash kuchlanishi U_{ish} , qaytish kuchlanishi U_{qay} va qaytish koeffitsiyentini K_{qay} aniqlang.
3. Kuchlanishning bir necha karra kattaliklarida relening ishlash vaqtini aniqlang.

PH-50 relesini sinashda bajariladigan ishlar tartibi

1. Sinash sxemasi bilan tanishib oling. Sxemada faqat uziq-uziq liniyalar bilan ko‘rsatilgan zanjirni yig‘ing, chunki qolgan zanjirlar sinashga tayyor. (2.2-rasm)
2. Relening ishlash kuchlanishini aniqlash.
 - 2.1. PH-50 relesining eng kichik o‘rnatma kuchlanishini o‘rnating.
 - 2.2. «S» tubmlerni ishlash holatiga keltiring.
 - 2.3. Sxemada ko‘rsatilgan uziq-uziq liniyalar bilan ko‘rsatilgan zanjirni yig‘ing.
 - 2.4. SF avtomatni yoqib sinash sxemasiga kuchlanish bering.
 - 2.5. K1 kalitni «U» kuchlanishlar zanjiriga o‘tkazing.
 - 2.6. Laboratoriya avtotransformatori yordamida kuchlanish relesining qo‘zg‘aluvchan kontaktlari o‘z holatini o‘zgartirguncha kuchlanishni asta sekin bilan oshirib boring.
 - 2.7. Qo‘zg‘aluvchan kontaktlar o‘z holatlarini o‘zgartirgan lahzada (elektrosekundomerning to‘xtashi) relening o‘rnatilgan $U_{o‘rn}$ kuchlanishdagi ishlash kuchlanishi U_{ish} hisoblanadi.
 - 2.8. Relening qaytish kuchlanishini aniqlash uchun reledagi kuchlanishni ishlash kuchlanishidan U_{ish} bir mucha kattalashtirib, so‘ngra qo‘zg‘aluvchi kontaktlar boshlang‘ich holatiga qaytguncha kamaytirib borish kerak.
 - 2.9. Qo‘zaluvchan kontaktlar boshlang‘ich holatga qaytgan lahzadagi kuchlanish relening qaytish kuchlanishi U_{qay} hisoblanadi.
- O‘lchov natijalarini 2.1 – jadvalga yozib qo‘ying va laboratoriyanı yana 2 martda qaytaring.
- 2.10. SF avtomat yordamida kuchlanishni uzib, o‘rnatmaning yangi qiymatini o‘rnating va sinovni davom ettiring.

O'lchov natijalarini o'rtacha qiymatlariga asoslanib, qaytish koeffitsiyentini va relening kuchlanish bo'yicha xatosini aniqlang.

$$K_{qay} = \frac{U_{qay}}{U_{ish}}; \quad \Delta U = \frac{U_{ish,ort} - U_{om}}{U_{om}} \cdot 100\%.$$

bu yerda $U_{ish,ort}$ – uch marta o'lchangan ishslash kuchlanishining o'rtacha arifmetik qiymati V, U_{om} – o'rnatma kuchlanish, V.

2.1 - Jadval

RN-50 relesi, U_{om} (V),					
U_{ish} .	1 o'lch				
	2 o'lch				
	3 o'lch.				
	o'rtacha				
U_{qay} .	1 o'lch				
	2 o'lch				
	3 o'lch				
	o'rtacha				
	K_{qay}				

3. Relening ishslash vaqtini aniqlash.


- 3.1. Releni ixtiyoriy o'rnatma kuchlanishini o'rnating.
- 3.2. SF avtomatni yoqib sinash sxemasiga kuchlanish bering.
- 3.3. K1 kalitni «U» kuchlanishlar zanjiriga o'tkazing.
- 3.4. Laboratoriya avtotransformatori yordamida religa berilayotgan kuchlanishni karralik 1,2 qiymatga etguncha davom ettiriladi.
- 3.5. K1 kalitni o'rta holatga keltirib, sekundomer ko'rsatkichi boshlang'ich holatga keltiriladi.
- 3.6. K1 kalitni «U» holatiga o'tkaziladi va relening ishslash vaqtini sekundomer orqali aniqlanadi.
- 3.7. Kalit K1 o'rta holatga keltiriladi.
- 3.8. Sekundomer ko'rsatkichi o'zining tugmasi orqali boshlang'ich holatga keltiriladi va laboratoriya yana ikki marta bajariladi. O'lchov natijalari 2.2 -jadvalga kriting.
- 3.9. Karralikning 1,5; 2 va 3 ga teng bo'lgan qiymatlarida 3.5., 3.6., 3.7., 3.8. **punktlar** qaytadan bajariladi.
- 3.10. O'lchovlar natijalari asosida relining o'rtacha ishslash vaqtini aniqlanadi.

2.2 - Jadval

$U_{o'rn}$, (V)					
K	1,1	1,3	1,5	1,8	2
U_R (B)					
$t_{o'r}$ (c)	1 o'lch				
	2 o'lch				
	3 o'lch				
	o'rtacha				

Hisobotni rasmiylashtirish tartibi

1. Rele haqida qisqacha ma'lumot.
2. Sinov sxemalari.
3. O'lchov natijalari yozilgan jadvallar.
4. Relelarni ishini ko'rsatuvchi grafiklar:
 $U_{ish\ o'rt}=f(U_{o'rn})$; $U_{qay.\ o'rt}=f(U_y)$
 $\Delta U_{o'rt}=f(U_{o'rn})$; $K_{qay}=f(U_y)$; $t_{ish}=f(K)$
5. O'lchov natijalarini texnik ma'lumotlar bilan taqqoslash natijalari.
6. Laboratoriyanidan qilingan xulosa.



2.2 – rasm. Laboratoriya stendini sinash sxemasi.

Nazorat savollari.

1. Relining ishslash tamoyilini tushuntirib bering.
2. Ishslash kuchlanishining o‘rnatmasi qanday o‘zgartiriladi?
3. Ishslash kuchlanishini rostlash usullarni tushuntirib bering.
4. Maksimal va minimal relelar deganda nimani tushunasiz?
5. Kuchlanish relesining ichki ulanish sxemalarini tushuntirib bering.
6. «Ishslash kuchlanishi», «qaytish kuchlanishi»larning ma’nosni nima?
7. Qaytish koeffitsiyenti nimani bildiradi va qanday aniqlanadi?
8. Relening ishslash vaqtini nima?

3 - LABORATORIYA ISHI

Vaqt relesini sinash

Ishdan maqsad: Vaqt relelearning tuzilishi, ish tamoyili, parametrlari va xarakteristikalar bilan tanishish.

Qisqa nazariy ma'lumot. Vazifasi bo‘yicha rele o‘lchov va mantiqiy turlarga bo‘ladi. Mantiqiy relelarga vaqt, ko‘rsatkich va oraliq relelari kiradi.

Vaqt relesi sabr vaqtini hosil qilish uchun xizmat qiladi. Hozirgi vaqtida o‘zgarmas va o‘zgaruvchan tokda ishlaydigan soat mexanizmli vaqt relelari keng tarqalgan bo‘lib, qurilmaning asosiy qismini aniq yuradigan soat mexanizmi tashkil qiladi.

Vaqt relesiga bir necha talablar qo‘yiladi:

- ishslash vaqtini bo‘yicha kichik cheklanish (razbros);
- ishslash vaqtini o‘rnatmasini keng oraliqda bir tekis o‘zgarishi;
- kuchlanish olingan so‘ng oldingi holatga tez qaytishi.

PB-200 turidagi elektromagnit vaqt relesi 100 V, 127 V, 220 V, 480 V o‘zgaruvchan operativ tokda, PB-100 vaqt relesi esa –24 V, 48 V, 100 V va 220 V o‘zgarmas operativ tokda ishslash uchun ishlab chiqariladi. Bu relelearning hammasi (RV-215, PB-245 lardan tashqari) rele cho‘lg‘ami kuchlanish ostida bo‘lganda harakatga keladi. Bu relelarda vaqtini o‘zgartirish oraliq‘i 0,1–1,3; 3; 0,25–3,5; 0,5–3 va 2–20 soniya oraliqlarda bo‘ladi.

Berilgan sabr vaqt bilan yopiladigan kontaktlardan tashqari releda oniy kontakti bo‘ladi, ayrim relelar esa sabr vaqtini berilgan asosiy

kontaktga o‘xshab yopiladigan (sekundning o‘ndan bir qismidan oshmaydigan vaqtga) qo‘shimcha suriluvchan kontaktga ega.


Vaqt relesining tuzilish 3.1-rasmda ko‘rsatilgan.

Ishlash tamoyili. Soat mexanizmining prujinasi (11) doim tortilgan holatda bo‘ladi. Cho‘lg‘amga (1) kuchlanish berilganda yakor (3) qaytaruvchi prujina (4) qarshiligini engib, tortiladi va soat mexanizmining richagini (9) qo‘yib yuboradi. Soat mexanizmi prujina (11) ta’sirida harakatlana boshlaydi va qo‘zg‘aluvchan kontaktni (22) bir tekis haraktlanishini ta’minlaydi, u esa berilgan vaqt oralig‘idan so‘ng qo‘zg‘almas kontaktni (23) yopadi. Qo‘zg‘aluvchan (22) va qo‘zg‘almas (23) kontaktlarning yopilish vaqtি qo‘zg‘aluvchan kontaktning holatini o‘zgartirish yo‘li bilan o‘zgartiriladi. Soat mexanizmining bir tekis xarakatlanishi ankerli mexanizm (20) yordamida ta’milanadi, uning harakatlanish tezligi yukchalarining (21) holatini o‘zgartirish yordamida sozlanadi.

Rele ta’minlash manbasidan uzilganda yakor (3) prujina (4) ta’sirida barmoq (9) ga ta’sir etib oldingi holatiga kaytadi, bunda rele kontaktlari ochiladi, prujina (11) ko’tariladi va rele keyingi harakatga tayyor holatga keladi. Releni dastlabki holatga qaytarish tez amalga oshiriladi, chunki rele oldingi holatiga qaytayotganda etaklovchi shesternani (15) shesterna g‘ildiragi (13) bilan bo‘linishini ta’minlovchi friksion mahkamlash moslamasi (14) mavjud.

Sinxron mikroelektromotorli PBM-12, PBM-13 turidagi elektromexanik vaqt relelari keng tarqalgan, ularni har biriga mikromotor ulanishi mumkin bo‘lgan ikkita OTTT (oraliq to‘yingan tok transformatori) bilan jihozlangan. PBM-12 relesining eng katta sabr vaqtি 4s, PBM-13 releniki esa -10s; iste’mol qiladigan quvvati 10 VA dan ko‘p emas; o‘zgaruvchan operativ tok zanjirlari uchun mo‘ljallangan statik relelardan keng tarqalgani ВЛ-27,37, ВЛ-29 turidagi yarimo‘tkazgichli relelar hamda PB-01 PB-03 relelardir. Ularda sabr vaqtি kondensatorli rezistor orqali kuchlanishni ma’lum qiymatgacha zaryadlash vaqtি hisobiga hosil qilinadi. ВЛ-27 relesining funksional **sxemasi** **3.2-rasmda** ko‘rsatilgan. Kondensatorli V_{SR} kuchlanishgacha zaryadlash sabr vaqtни katta bo‘ladi, agarda manba kuchlanishi qancha past va R , S kattaliklar yuqori bo‘lsa, statik vaqt relelari 24 va 110 V li o‘zgarmas operativ tokdagi, hamda 110 va 220 V li o‘zgaruvchan operativ tokdagi himoyalarning yarim o‘tkazgichli qurilmalarida ishlatiladi. Releni navbatdagi ishga tayyorlash minimal vaqtি - 0,3 s; releni maksimal

qaytarish vaqtı-0,2 s; tarmoqdan iste'mol qiladigan quvvati 8 VA dan ko'p emas.



3.1 – rasm. RV-200 vaqt relesi: a) tashqi ko'rinishi; b) friksion mahkamlash moslamasi ishlamagan holatda; v) friksion mahkamlash moslamasi ishlagan holatda; 1-cho'lg'am; 2-magnit o'tkazgich; 3-yakor; 4-qaytaruvchi prujina; 5-o'tkazgich simcha; 6-qo'zg'aluvchan kontakt; 7 va 8 –qo'zg'almas kontaktlar; 9-palets (barmoq); 10-tishli sektor; 11-haraktlantiruvchi prujina; 12-prujinani tortish uchun skoba; tishli g'ildirak; 14- friksion ulovchi mexanizm; 15-harakalantiruvchi tishli g'ildirak; 16- soat mexanizmining trubkasi; 17 va 18- tishli uzatma; 19-ankerli tishli g'ildirak; 20-ankerli skoba; 21-yukchalar; 22- qo'zg'aluvchan kontakt; 23-qo'zg'almas kontakt; 24-shkala.

Ish dasturi

1.O'rganilayotgan relelearning tuzilishi va ishslash tamoyili hamda pasportidagi ma'lumotlar bilan tanishing.

2. Vaqt relesini sinash sxemasi bilan tanishing, uni yig'ing va qo'yidagilarni aniklang:

a) U_{nom} da shkala bo'yicha barcha o'rnatmalar uchun releni ishslash vaqtini;

b) relening ishlash va qaytish kuchlanishini.

Vaqt relesini sinashda bajariladigan ishlar tartibi

3.1. Vaqt relesini magnit va kontakt tizimlarini ko'rib chiqing. Vaqtni o'zgartirish usuli bilan tanishing va uning ma'lumotlarini yozing.

3.1.1. Vaqt relesini sinash sxemasi bilan tanishing (3.1-**rasm**). Sxemada K1 kalit o'rta holatda, «S» tumbler o'chirilgan holatda, laboratoriya avtotransformatori boshlang'ich holatda bo'lishi lozim. Sxemada faqat uziq-uziq chiziqlar yig'iladi.

3.2. Vaqt relining ishlash vaqtlarini sinash.

3.2.1. Shkalada ixtiyoriy o'rnatma vaqtini o'rnatning. Buning uchun vint yordamida qo'zg'almas kontaktni bo'shating va uni shkalada tanlangan o'rnatma qarshisiga to'g'ri keladigan holatga olib qo'ying.

3.2.2. «SF» avtomatni ulab stendga kuchlanish bering, K1 kalitni kuchlanishlar zanjiriga «U» o'tkazing va laboratoriya avtotransformator yordamida reledagi kuchlanishni 220 V gacha ko'taring.

3.2.3. K1 kalitni o'rta holatga keltiring, «S» tumblerni ishlash holatiga o'tkazing, bunda rele cho'lg'ami va elektrosekundomer bir vaqtda kuchlanish ostida bo'ladi.

3.2.4. K1 kalitni kuchlanishlar zanjiriga «U» o'tkazing. Relening o'rnatmasi bilan aniqlanadigan vaqtdan so'ng kontaktlar yopiladi, sekundomer cho'lg'ami zanjiri shuntlanadi va u ishlamay qoladi, ya'ni relening ishlash vaqtini qayd etadi. Releni ishlash vaqt (sabr vaqt) deb relega ishlash kuchlanishi berilgan lahzadan kontaktlarning yopilishigacha bo'lgan vaqtga aytildi.

3.2.5. Sekundomer ko'rsatkichini 3.1-jadvalga yozing, SA1 kalitni o'chiring va sekundomerni o'zining tugmasi orqali boshlang'ich holatga keltiriladi.

3.2.6. Ushbu o'rnatmada, faqat K1 kalitdan foydalanib, laboratoriyanı yana ikki marta qaytaring.

3.2.7. Shunga o'xhash laboratoriyalarni boshqa vaqt o'rnatmalari uchun o'tkazing. O'rnatmani o'zgartirishdan oldin reledagi kuchlanish K1 kalit yordamida tushiriladi.

Olingan natijalar bo'yicha o'rtacha ishlash vaqtini $t_{ish, o'rt}$ va sabr vaqt xatoligini hisoblang.

$$\Delta t = \frac{t_{o'rt} - t_{o'm}}{t_{o'm}} \cdot 100\% .$$

3.1-jadval

$t_{o'rn}(c)$						
t_{ish1}						
t_{ish2}						
t_{ish3}						
$t_{ish,o'rt}$						
Δt						

$t_{o'rt}=f(t_{o'rn})$; $\Delta t=f(t_{o'rt})$ ga asosan grafik chizing:

3.3. Relening ishlash va qaytish kuchlanishlarini aniqlash.

3.3.1. Relening ishlash kuchlanishini aniqlash uchun vaqt relesining minimal vaqt o'rnatmasini o'rnatning, «SF» avtomatni ulab stendga kuchlanish bering, K1 kalitni kuchlanishlar zanjiriga «U» o'tkazing.

3.3.2. Laboratoriya avtotransformator yordamida relega berilayotgan kuchlanishni bir tekisda oshirib boring. Relening yakori tortilgan lahzadagi kuchlanish relening ishlash kuchlanishi U_{ish} deyiladi.

3.3.3. Relening qaytish kuchlanishini aniqlash uchun rele ishlab turgan lahzada unga berilayotgan kuchlanishni laboratoriya avtotransformatori yordamida bir tekisda kamaytirib boring.

3.4. Relening yakori boshlang'ich holatga qaytgan lahzada kuchlanish relening qaytish kuchlanishi deyiladi.


3.5. Sinovni yana ikki marta bajarib natijalarni 3.2 - jadvalga kriting. Qaytish koeffitsiyentini qo'yidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$$K_{qay} = \frac{U_{qay}}{U_{ish}}$$


Ishlash kuchlanishi 80% U_{nom} dan kam bo'lmasligi kerak.

3.2-jadval

Vaqt relesi	U_{ish}, V	U_{qay}, V	K_{qay}
1 o'lch.			
2 o'lch.			
3 o'lch.			
o'rtacha			



3.2 – rasm. BII-27 ning funksional sxemasi: VS- to‘g‘rilagich; *KL1*-kirish relesi; *S₁* –impulslar generatori; *TS* –stabilizator; *VD1* –diyd; *DS* –trigger; *KL2* –chiqish relesi; *S₁, S₂* - kondensatorlar; *R₁, R₂, R₃* – rezistorlar



3.3 – rasm. Vaqt relesini sinash sxemasi.

Hisobotni rasmiylashtirish tartibi

1. Rele haqida ma'lumotlar.
2. Relelarni sinov sxemalari.
3. Sinov natijalari jadvali.
4. Rele ishini xarakterlovchi grafik bog‘lanishlar.
5. Laboratoriya ishi bo‘yicha xulosalar.

Nazorat savollari

1. Vaqt relesining qanday turlarini bilasiz?
2. Relening ishlash tamoyilini tushuntirib bering?
2. PB - 200 releda sabr vaqt qanday hosil qilinadi?
3. Maksimal tokli himoyalarda sabr vaqt nima uchun zarur bo‘ladi?
4. Vaqt relesining sabr vaqtiga deganda nimani tushunasiz?

4-LABORATORIYA ISHI

Oraliq va ko‘rsatkich relelarini sinash

Ishdan maqsad: Oraliq va ko‘rsatkich relelarini ishlash tamoyili va tuzilishini o‘rganish.


Qisqacha nazariy ma’lumot. Oraliq relelar elektromagnit tamoyili asosida bajariladi, o‘zgarmas va o‘zgaruvchan tokda ishlaydi. Uning vazifasiga qarab yoki tok cho‘lg‘amlariga qarab, 1 dan 5-8 juftgacha kontaktlari bo‘ladi (4.1-rasm).

Oraliq relesining vazifasi:

–bir nechta zanjirlar ishlagan xollarda asosiy rele kontaktlarini ko‘paytirish uchun;
–asosiy rele kontaktlari mo‘ljallanmagan katta qo‘sib uzish zaruriyati bo‘lganda asosiy rele kontaktlarini engillashtirish uchun.

Kuchlanish cho‘lg‘amli oraliq relesi manba operativ tokining to‘la kuchlanishiga ulanadi. Tok cho‘lg‘amli rele boshida apparatlarning (masalan, o‘zgichlarning o‘chirish cho‘lg‘amlari) cho‘lg‘am zanjirlariga ketma-ket ulanadi va bu zanjirdan oqayotgan tokda ishlaydi. O‘zgarmas tok relesi-24, 48, 110, 220 V kuchlanishlarda bajariladi. Oraliq relelarning ko‘p turlari mavjud, ular bir-biridan kontaktlar tizimi, cho‘lg‘amlar ma’lumoti, iste’mol qilayotgan quvvati va relening ishlash vaqtiga bilan farq qiladi.

Operativ tok manbasining yuklamasi ortganda oraliq relelari ishlab ketmasligi uchun, ularga talab qo‘yiladi, ya’ni ular kuchlanish 80% U_{NOM} dan yuqori bo‘lmaganda ishlashi kerak. Bunday turdagি relelar uchun qaytish koeffitsiyentining qiymati me’yorlanmaydi, chunki rele undan kuchlanish olib tashlangan so‘ng qaytadi. Bunda oraliq relesi kichik qaytish koeffitsiyentiga ega bo‘ladi (0,5 dan kichik).



4.1 – rasm. PI-23 oraliq relesining: a)-oraliq relesining tashqi ko‘rinishi; b)-ichki ulanish sxemasi.

PI-23, PI-24 oraliq relelarining uzish quvvati 110 V kuchlanishli induktiv yuklama bo‘lmagan o‘zgarmas tokda 1 A, induktiv yuklama 220 V kuchlanishda 0,5 A hamda 110 V kuchlanishda 4 A ni tashkil etadi.


O‘zgaruvchan tokda 110 V kuchlanishda 10 A, 220 V kuchlanishda 5 A.

Avtomatika va himoya sxemalarida tez ishlashi bo‘yicha aksariyat oraliq relelariga katta talab qo‘yiladi, shuning uchun ularning ishlash vaqtisi 0,1– 0,03 soniyadan yuqori bo‘lmasligi kerak.

Ko‘rsatkich relelar releli himoya va avtomatika sxemalaridagi qurilmalarni ishlashini ko‘rsatish (habar berish) uchun ishlatiladi. Ular o‘zgarmas va o‘zgaruvchan tokda elektromagnit tamoyil asosida bajariladi.

Releni ketma-ket yoki parallel ulash mumkin. Ketma-ket ulangan relening cho‘lg‘ami boshida rele va apparatlar cho‘lg‘ami zanjirlariga (masalan, o‘chirgichni o‘chirish cho‘lg‘ami zanjiriga) ulanadi va shu zanjirdan oqayotgan tokdan ishlab, himoyani ishlaganini qayd etadi. Himoyalarda ko‘pincha ketma-ket ulangan relelar ishlatiladi.

Hozirgi vaqtida keng ishlatiladigan PY-11 turidagi ko‘rsatgich relesining tuzilishi **4.2-rasmda** ko‘rsatilgan. Ketma-ket ulangan releni shunday tanlash kerakki, bunda uning cho‘lg‘amidagi kuchlanish og‘ishi operativ tok manbasining 5-10% U_{nom} dan oshmasligi kerak, bunda cho‘lg‘amidagi tok ishlash tokining 1,5 karraligidan kichik bo‘lmasligi kerak.



4.2 – rasm. PY-21 turidagi ko‘rsatkich relesi: a) tashqi ko‘rinishi; b) ichki ulanish sxemasi; 1-sokol; 2-cho‘lg‘am; 3-yakor; 4 – zub zaşelki; 5 – kontakt ko‘prik; 6-yuk; 7 – old podshipnik; 8 – skobani old devori; 9 – qo‘zg‘almas kontakt; 10 – plankalar; 11 – skoba; 12-prujina (qarshilik qiluvchi); 13 – skoba; 14 – qaytaruvchi prujina;

Ish dasturi

1.O‘rganilayotgan relelarning tuzilishi va ishlash tamoyili hamda pasportidagi ma’lumotlar bilan tanishing.

2. Oraliq relesining sinash sxemasi bilan tanishing, uni yig‘ing va quyidagilarni aniqlang:

- a) relening ishlash va qaytish kuchlanishini;
- b) relening ishlash vaqtini;

3. Ko‘rsatkich relesining sinash sxemasi bilan tanishing, uni yig‘ing va qo‘yidagilarni aniqlang:

- a) relening ishlash tokini aniqlang.

Oraliq relesini sinashda bajariladigan ishlar tartibi

4. Oraliq relisini ishlash va qaytish kuchlanishlarini aniqlash.

4.1. Oraliq relesini magnit va kontakt tizimlarini ko‘rib chiqing va pasportdagи ma’lumotlarini yozing.

4.2. SF avtomatni o‘chiring va vaqt relesi o‘rniga sinash sxemasiga KL oraliq relesini ulang (4.3-rasm).

4.3. Oraliq relesining ishlash va qaytish kuchlanishini aniqlang. Buning uchun, «SF» avtomatni ulab stendga kuchlanish bering, K1 kalitni kuchlanishlar zanjiriga «U» o‘tkazing.

4.4. Laboratoriya avtotransformator yordamida relega berilayotgan kuchlanishni bir tekisda oshirib boring. Relening yakori tortilgan lahzadagi kuchlanish relening ishlash kuchlanishi U_{ish} deyiladi.

4.5. Relening qaytish kuchlanishini aniqlash uchun rele ishlab turgan lahzada unga berilayotgan kuchlanishni laboratoriya avtotransformatori yordamida bir tekisda kamaytirib boriladi.

4.6. Relening yakori boshlang‘ich holatga qaytgan lahzadagi kuchlanish relening qaytish kuchlanishi deyiladi.

4.7. Laboratoriyani ikki marta qaytaring va olingan natijalarni 4.1-jadvalga kiritamiz.

4.1-jadval

Oraliq relsi	U_{ish} , V	U_{qay} , V	K_{qay} , V
1 o‘lch			
2 o‘lch			
3 o‘lch			
O‘rtacha			

4. Oraliq relesining ishlash vaqtini aniqlash.

4.1. «SF» avtomatni ulab stendga kuchlanish bering, K1 kalitni kuchlanishlar zanjiriga «U» o‘tkazing va laboratoriya avtotransformator yordamida reledagi kuchlanishni 220 V gacha ko‘taring.


4.2. K1 kalitni o‘rta holatga keltiring, «S» tumblerni ishlash holatiga o‘tkazing, bunda rele cho‘lg‘ami va elektrosekundomer bir vaqtida kuchlanish ostida bo‘ladi.

4.3. K1 kalitni «U» holatiga o‘tkaziladi va relening ishlash vaqtini sekundomer orqali aniqlanadi.

4.4. Sekundomer ko‘rsatkichi o‘zining tugmasi orqali boshlang‘ich holatga keltiriladi va laboratoriyani yana ikki marta bajarib olingan natijalarni 4.2-jadvalga kriting.

4.2-jadval

t_{ish} (с)	1 o‘lch.	2 o‘lch.	3 o‘lch.	$t_{ish.o‘rt}$ (с)



4.3 – rasm. Oraliq relesining sinash sxemasi.


PY – 21 ko‘rsatkich relesini sinashda bajariladigan ishlar tartibi

1. Sinash sxemasi bilan tanishib oling. Sxemada faqat uziq-uziq liniyalar bilan ko‘rsatilgan zanjirni yig‘ing, chunki qolgan zanjirlar sinashga tayyor. (4.4-rasm)
2. Relening ishlash tokini aniqlash.
 - 2.1. «S» tubmlerni ishlash holatiga keltiring.
 - 2.2. Sxemada ko‘rsatilgan uziq-uziq liniyalar bilan ko‘rsatilgan zanjirni yig‘ing.
 - 2.3. SF avtomatni yoqib sinash sxemasiga kuchlanish bering.
 - 2.4. K1 kalitni «I» toklar zanjiriga o‘tkazing.
 - 2.5. Laboratoriya avtotransformatori yordamida ko‘rsatkich relesining yakori magnit o‘zakka tortilguncha tok miqdorini sekinlik bilan oshirib boring.
 - 2.6. Qo‘zg‘aluvchan kontaktlar (yakorni tortilishi) o‘z holatlarini o‘zgartirgan lahzadagi tok relening ishlash toki I_{ish} hisoblanadi.

Laboratoriyanı yana ikki marta bajarib natijalarını 4.3-jadvalga kriting.

4.3 – Jadval

I_{ish}	1 o‘lch.				
	2 o‘lch.				
	3 o‘lch.				
	o‘rtacha.				



4.4 – rasm. PY-21 ko‘rsatkich relesini sinash sxemasi.

Hisobotni rasmiylashtirish tartibi

1. Relelar haqida ma'lumotlar.
2. Relelarning sinov sxemalari.
3. Sinov natijalari jadvali.
4. Laboratoriya ishi bo'yicha xulosalar.

Nazorat savollari.

1. Oralig' relesining qanday turlarini bilasiz?
2. Relening ishlash tamoyilini tushuntirib bering?
3. Ko‘rsatkich relesining qanday turlarini bilasiz?
4. Relening ishlash tamoyilini tushuntirib bering?

5 - LABORATORIYA ISHI

PT-80 turidagi induksion tok relesini sinash

Ishdan maqsad: PT – 80 turdagi induksion tok relesini ishslash tamoyilini va tuzilishini o‘rganish. Asosiy texnik parametrlarini va xarakteristikasini aniqlash.

Qisqacha nazariy ma’lumot. PT – 80 seriyali relelar ikki qismdan iborat, induksion element va elektromagnit element (tokli kesim). Relening tuzilish 5.1 - rasmda keltirilgan.

Relida ajralgan magnit o‘zak (20), undagi chulg‘am (15), qisqa tutashtirilgan o‘ram (22), alyumin disk (21) va tormozlovchi magnit (36) induksion qismini, yarmo (19) hamda yakor (10) elektromagnit qismini tashkil etadi.

Ijrochi element sifatida relening baquvvat kontaktlari (6, 7) qo‘llanilgan, shu sababli ko‘pgina hollarda RT-80 relesi oraliq relelarsiz qo‘llanadi.

Qabul qiluvchi va bajaruvchi organlar bog‘lab turuvchi oraliq element skoba (37), unga mahkamlangan alyumin disk (21), disk o‘qiga (26) mustahkamlangan chervyak (3) va tishli sektor (1), richagni (8) tutib turuvchi yo‘naltiruvchidan (23) iborat. Yo‘naltiruvchini kerakli holatga o‘rnatish vint (35) orqali, relening ishslash vaqtি o‘rnatmasi esa shkala (34) orqali amalga oshiriladi.

Disk o‘qi (21) podshipniklar (2) orqali ramkaga (33) o‘rnatilgan. Ramkaning harakati ustunga (30) o‘rnatilgan tutgich (**podyatnik**) (39) orqali chegaralangan.

Ramkani boshlang‘ich holatga qaytarish prujina (29), skoba (32), cheklovchi tayanch vint (25) va gayka (24) orqali amalga oshiriladi. Prujinaning bikrligini o‘zgartirish vintlar (28, 31) orqali amalga oshiriladi.

Ishlash tokini rostlash uchun shtepselli ulagich (17) shaxobchalar (16) bilan mustahkamlangan. Tok bo‘yicha o‘rnatma qiymati shtepselli vint (18) holati orqali aniqlanadi. Chulg‘amga tok qisqichlar (5) orqali beriladi.


Tokli kesimning ishslash tokini rostlash magnit uzakka o‘rnatilgan shkalalar o‘rnatmasi (13) va rostlovchi vint (12) orqali amalga oshiriladi.

Cheklovchi plastinka (11) rostlovchi vintni o‘z-o‘zidan buralishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Pastki tutgich o‘qining uchi konus shaklida charxlangan bo‘lib, ramkaning ishlash jarayonida ishqalanishni sezilarli darajada kamaytiradi.

Rasmda uziq-uziq chiziqlar orqali habar kontaktlari (38) ko‘rsatilgan.

Rele g‘ilofga o‘rnatilgan bo‘lib plastmassali yechiladigan qopqoqdan va relening holatini ko‘rsatuvchi ko‘rsatkichdan iborat. Yakorning o‘ng tarafida qisqa tutashtirilgan cho‘lg‘am (14) elektromagnitni titrashlarsiz ishlashini ta’minlaydi.



5.1-rasm. PT-80 tok relesi: a) – tashqi ko‘rinishi; b) – ishlash tamoyili.

1- tishli segment; 2-podshipnik; 3-chervyak; 4-shayin; 5-qisqichlar; 6,7-kontaktlar, 8-richag, 9- tayanch; 10-yakor, 11-chechklovchi plastinka, 12-rostlovchi vint, 13-ishlash tokining o‘rnatma shkalasi, 14- qisqa tutashtirilgan chulg‘am,

15-chulg‘am, 16-shaxobchalar, 17-shtepselli qayta ulagich, 18- shtepselli vint, 19-yarmo, 20-magnit o‘tkazgich, 21-alyumin disk, 22-qisqa tutashtirilgan chulg‘am, 23-yo‘naltiruvchi, 24-gayka, 25-tayanch vint, 26-diskning o‘qi, 27-po‘lat skoba, 28,31-rostlovchi vintlar, 29-prujina, 30-ustun, 32-prujina tutqich, 33-ramka, 34-vaqtlar o‘rnatmasi, 35-vaqt o‘rnatmasini o‘rnatuvchi vint, 36-doimiy magnit, 37-richagni mahkamlovchi skoba, 38-habar kontaktlar, 39- podpyatnik.

Induksion elementning ishlashi tokning qiymatiga bog‘liq bo‘lgan sabr vaqtli, elektromagnit qismi tokning katta qiymatlarida ishslashga mo‘ljallangan bo‘lib, tokli kesim deb ataladi.

Ishlash tamoyili. induksion relening ishlashi uchun kamida 2 ta bir-biridan fazasi va maydon bilan farq qiluvchi magnit oqimlar mavjud bo‘lishi shart. Bu shartni bajarish uchun magnit tizimining qutblariga qisqa tutashtirilgan o‘ramlar o‘rnatilgan.

Relening cho‘lg‘amidan tok o‘tayotganda magnit oqim F_1 hosil bo‘ladi.

Elektromagnit induksiya qonuniga asosan F_1 oqim qisqa tutashgan o‘ramda E_{qt} e.yu.k. va tok I_{qt} ni, ular esa oqim F_2 ni hosil qiladi.

Har qaysi oqim diskda tok hosil qiladi. Bu toklarning magnit oqim bilan o‘zaro ta’siri natijasida aylantiruvchi moment hosil bo‘ladi.

$$M_{ayl} = K' \Phi_1 \Phi_2 \sin \psi$$

bu yerda: ψ - F_1 va F_2 oqimlar orasidagi faza burchagi.

$$M_{ayl} = K'' I_p^2$$

Ishlash tokining 20-30 foizida disk aylana boshlaydi. Aylanayotgan diskka M_{ayl} dan tashqari doimiy magnit bilan bog‘liq bo‘lgan tormozlovchi moment (M_{tor}), segmentning massasiga bog‘liq bo‘lgan tormozlovchi inersiya momentilari (M_{ishq}) ta’sir qiladi. Diskning aylanish chastotasi ana shu momentlar hosil qilgan kuchlarning muvozanatiga bog‘liq.

Rele cho‘lg‘amidan induksion elementning ishlash tokiga teng tok o‘tganda ramkani aylantiruvchi kuch prujinaning kuchini yengadi. Ramka disk bilan birga soat strelkasi bo‘yicha aylanadi. Chervyak tishli segment bilan bog‘lanadi, tishli segment esa yuqoriga ko‘tarilib richagni (8) shayin (4) bilan to‘qnashtiradi. Natijada yakorning o‘ng tomoni magnit o‘zakka tortiladi, shu vaqtda kontaktlar (6 va 7) ulanib, rele ishlaydi.

Relening cho‘lg‘amidagi tok qanchalik katta bo‘lsa, shunchalik disk tez aylanadi, tishli segment tezroq yuqoriga ko‘tariladi, rele tezroq ishga tushaveradi.

Cho‘lg‘amdagи tok oshgани sari elektromagnit moment ham avvaliga tokning kvadratiga proporsional bo‘lib oshaveradi, magnit o‘zak to‘yina boshlagandan keyin momentning oshishi sekinlashadi.

Bunga mos ravishda relening ishlash vaqtি avval birdaniga kamayadi, keyin esa deyarli o‘zgarmas bo‘lib qoladi (relening xarakteristikasiga qarang).

Relening cho‘lg‘amidan elektromagnit elementning ishlash tokiga teng yoki undan katta tok o‘tsa, unda yakorning o‘ng tomoni magnit o‘zakka to‘g‘ridan – to‘g‘ri tortiladi. Rele sabr vaqtsiz ishlab xarakteristikani kesganday bo‘ladi. Shuning uchun elektromagnit element “tokli kesim” deyiladi.

Kesimning ishlash toki vint (12) yordamida o‘rnataladi, uning shkalasidagi sonlar kesimning ishlash toki induksion elementning ishlash tokidan necha marta kattaligini ko‘rsatadi (2 dan 8 gacha).

Rele cho‘lg‘amdagи tok kamaysa yoki yo‘q bo‘lsa relening barcha qismlari avvalgi holatiga qaytadi.


PT – 80 relesining texnik ma’lumotlari:

1. Cho‘lg‘amning nominal toki 5A va 10A
2. Induksion elementning ishlash toki o‘rnatmalari:
2; 2.5; 3; 3.5; 4; 5; 6; 7; 8; 9; 10A.
3. Ishlash vaqtি o‘rnatmalari: 1, 2, 3, 4 soniya.
4. Tokli kesimning karralik o‘rnatmalari: 2; 4; 6; 8
5. Diskning aylanishi induksion element ishlash tokini 30% ga to‘g‘ri keladi.
6. Induksion elementning ishlash tokidagi xatolik 5% dan oshmaydi.
7. Tokli kesimning tokidagi xatolik 30% dan ko‘p emas.
8. Induksion elementning qaytish koeffitsiyenti 0.8 dan kam emas.
9. O‘rnatma tokidagi iste’mol qilinadigan quvvat 10 VA dan ko‘p emas.

Ish dasturi

1. Relening tuzilishi bilan tanishib chiqing, magnit tizimiga, induksion va vaqtini o‘zgartirish usullariga e’tibor bering, pasportida ko‘rsatilgan ma’lumotlarni yozib oling.
2. Induksion elementdagi har bir o‘rnatma uchun ishlash toki va qaytish tokini, qaytish koeffitsiyentini aniqlang.

3. Elektromagnit qism uchun shkaladagi bir necha o‘rnatmada ishlash tokini aniqlang.
4. Rele ishlash vaqtini tokning karraligiga bog‘liqlik grafigini tuzing.
5. Shu grafikni tokli kesim ishlamay turgan hol uchun tuzing.



5.2 – rasm. PT-80 relesini sinash sxemasi.

PT – 80 relesini sinashda bajariladigan ishlar tartibi

5. Sinash sxemasi bilan tanishib oling. Sxemada faqat uziq-uziq liniyalar bilan ko‘rsatilgan zanjirni yig‘ing, chunki qolgan zanjirlar sinashga tayyor (5.2-rasm).

5.1. Relening ishlash va qaytish toklarini aniqlash.

5.1.1. PT-80 relesining eng kichik o‘rnatma tokini o‘rnating, buning uchun shtepselli ulagichni shkalada ko‘rsatilgan eng kichik tok miqdori ko‘rsatilgan shahobchaga o‘tkazing.

5.1.2. Magnit o‘zak bilan yakor orasida maksimal bo‘shliq hosil qiladigan tokli kesimni holatini boshqaruvchi rostlovchi vint yordamida o‘rnating.

5.1.3. «S» tubmlerni ishlash holatiga keltiring.

5.1.4. SF avtomatni yoqib sinash sxemasiga kuchlanish bering.

5.1.5. K1 kalitni «I» toklar zanjiriga o‘tkazing.

5.1.6. Laboratoriya avtotransformatori yordamida tok **miqdorini** disk ramka bilan soat strelkasi bo‘yicha aylanib, chervyak tishli segment bilan bog‘languncha sekinlik bilan oshirib boring. Bu tok induksion elementni ishlash toki hisoblanadi.

5.1.7. Qaytish tokini I_{qay} aniqlash uchun avval reledagi tokni ishslash tokidan biroz ko‘paytirib, keyin asta - sekin kamaytirib borish lozim. Disk ramka bilan soat strelkasiga nisbatan teskari tomonga aylanib, chervyak segmentdan ajralgandagi tok qaytish toki bo‘ladi.

Har xil o‘rnatmali toklar uchun laboratoriyanı uch martadan bajarib natijalarni 5.1 – jadvalga kriting.

5.1-jadval

$I_{o^{\circ}rn}$, (A)						
I_{ish} , (A)	1 o‘lch					
	2 o‘lch					
	3 o‘lch					
	o‘rtacha					
ΔI_{ish} , (A)						
I_{qay} , (A)	1 o‘lch					
	2 o‘lch					
	3 o‘lch					
	o‘rtacha					
K_{qay}						

Laboratoriya natijasida ishslash tokning nisbiy xatoligini qo‘yidagicha:

$$\Delta I_{ish} = \frac{(I_{ish,o^{\circ}rt} - I_{o^{\circ}rn})}{I_{o^{\circ}rn}} \cdot 100\%$$

Relening qaytish koeffitsiyenti:

$$K_{qay} = \frac{I_{qay,o^{\circ}rt}}{I_{ish,o^{\circ}rt}}$$

5.2. Tokli kesimning ishslash tokini aniqlash.

5.2.1. Buning uchun induksion elementda vaqt bo‘yicha eng katta vaqt o‘rnating, o‘rnatma tokini qiymatini o‘qituvchi belgilaydi.

5.2.2. Boshqaruvchi vint yordamida kesim karraligini eng past qiymati o‘rnatalidi.

5.2.3. SF avtomat bilan stendga kuchlanish bering, K1 kalitni “I” holatiga o‘tkazing. Laboratoriya avtotransformatori yordamida tokni sekin-asta kesim ishslash tokigacha oshiring, vaqt induksion elementining ishslash vaqtidan oshmasligi kerak. Tokli kesimning ishslashini habar bayroqchasi (**blinker**) orqali bilish mumkin.

Sinovni 3 marta qaytarib natijalarni 5.2- jadvalga kriting.

5.2-jadval

Induksion elementlari o‘rnatma toki $I_{o‘rn}$ =		Tokli kesimning karraligi		
$I_{ish, kes}$, (A)	1 o‘lch.			
	2 o‘lch.			
	3 o‘lch.			
	o‘rtacha.			

Relega uning I_{ish} dan kattaroq tok berilgan vaqtdan boshlab, to uning kontaktlari qo‘shilgunga qadar ketgan vaqt uning ishlash vaqtini deyiladi.

Vaqt-tok xarakteristikasini tuzish. Ushbu laboratoriyanı bajarish uchun o‘qituvchi tomonidan induksion elementning tok va vaqt bo‘yicha o‘rnatmalari beriladi va bu kattaliklar releda o‘rnataladi.

4. K1 kalitni “I” holatiga o‘tkazing, relega laboratoriya avtotransformatori yordamida tok bering, tok $I_p = 1,1 I_{o‘rn}$ ga teng bo‘lsin.

4.1. K1 kalitni o‘rta holatga keltirib, S tumblerni yoqing, K1 kalitni “I” holatiga keltiring.

4.2. Elektrosekundomer to‘xtaganda K1 kalitni o‘rta holatga keltirib, vaqtini yozib oling. Elektrosekundomerni o‘zining tugmasi orqali boshlang‘ich holatga keltirib berilgan karraliklarda laboratoriyanı yana uch martadan bajaring. Laboratoriya natijalarini 5.3-jadvalga kiriting.

5.3-jadval

O‘rnatmala r	$I_{o‘rn}$ (A)				
	$t_{o‘rn}$ (c)				
	K_{kes}				
Tokning karraligi K		1,1	1,2	1,5	2
Reledagi tok I_r , (A)					
t_{ish} , (s)	1 o‘lch.				
	2 o‘lch.				
	3 o‘lch.				
	o‘rtacha				

Laboratoriylar natijasi asosida $t_{ish}=f(k)$ kesimsiz va kesim bilan olingan grafikni chizing.

Hisobotni rasmiylashtirish tartibi

1. Sinalayotgan relening turi va pasportidagi ma'lumotlar.
2. Rele va uning ishlashi haqida qisqacha ma'lumot.
3. Sinov sxemalari.
4. O'lchov natijalari yozilgan jadvallar.
5. Rele ishini ko'rsatuvchi grafiklar:

$$I_{ish.o^{rt}}=f(I_{o^{rn}}); I_{qay.o^{rt}}=f(I_{o^{rn}}); \Delta I=f(I_{o^{rn}}); \\ K_{qay}=f(I_{o^{rn}}); I_{ish.kes}=f(I_{o^{rn}}); t_{ish}=f(K).$$

6. O'lchov natijalarini texnik ma'lumotlar bilan taqqoslang va olingan xulosalarni keltiring.

Nazorat savollari.

1. Induksion elementni qaysi qismlar tashkil etadi?
2. Elektromagnit elementini qaysi qismlar tashkil etadi?
3. Diskning aylanish tezligi nimaga bog'liq?
4. Ishlash va qaytish toklari nima?
5. Induksion elementning o'rnatmalari qanday o'zgartiriladi?
6. Induksion elementning o'rnatmasi qaysi tokda ko'rsatilgan?
7. Tokli kesimning shkalasidagi sonlar nimani ko'rsatadi?
8. Agar induksion elementning o'rnatmasi 4,5 A ga teng bo'lsa, cho'g'lamdan o'tayotgan tok 2A ni tashkil etsa, disk qanday holatda bo'ladi?

6 - LABORATORIYA ISHI

Tok transformatorlari va releelarning ulanish sxemalarini tekshirish

Ishdan maqsad: Tok transformatorlarining (TT) ikkilamchi cho'lg'amlariga ulanadigan relelar sxemalarini o'rGANISH, vektor diagrammalarini tuzish.


Qisqa nazariy ma'lumot. Tok transformatorning tuzilishi va ulanish sxemasi 6.1 – rasm ko'rsatilgan.

Uning asosiy elementlari 1 po'lat magnik o'zakdan, 2 birlamchi cho'lg'amdan va 3 ikkilamchi cho'lg'amdan iborat. (6.1-rasm, a)

Nazorat qilinayotgan zanjirga TT ning birlamchi cho'lg'ami ketma-ket ulangan.

Ikkilamchi cho'lg'amga esa o'lchov asboblari va rele ulanadi.

Sxemada birlamchi cho'lg'amning uchlari "L1" va "L2", ikkilamchi cho'lg'amniki esa " u_1 " va " u_2 " harflar bilan belgilanadi. Tokning yo'nalishlari 1-rasmda ko'rsatilgan.



6.1-rasm. Tok transformatori: a)-tok transformatorning tuzilish; b) -sxemalarda ko'rsatilish; v)- vektor diagrammasi.

Ulash sxemalari.

Himoyalarda tok transformatorlarining qo'yidagi 4 ta ulash sxemalari qo'llaniladi:

- 1) to'liq yulduz (uch fazali, 4 releli)
- 2) to'liqmas yulduz (2 fazali, 2 releli)
- 3) releni toklar ayirmasiga ulash (2 fazali, 1 releli)


4) TT ning ikkilamchi cho‘lg‘amlarini uch burchak, releni esa yulduz usulida (uch fazali, uchta releli sxema).

1. To‘liq yulduz sxemasi (6.2-rasm). Bu usulda uchta TT ning bir xil nomlangan «I₂» uchlari umumiyligi nuqtaga birlashtirilib, uchta relening umumiyligi nuqtasi bilan nol sim orqali bog‘lanadi.

Har bir sxema uchun sxema koeffitsenti aniqlanadi. Bu koeffitsent quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{sx} = \frac{I_r}{I_{2f}};$$


Ya’ni reledagi tokni TTning ikkilamchi cho‘lg‘amidan o‘tayotgan faza tokiga nisbati. Bu sxemalar betaraf nuqtasi zaminlangan tarmoqlarda qo‘llaniladi. Bu usulda ulangan himoya qisqa tutashuvning barcha turlariga ta’sir javob beradi. K_{sx}=1, uchta TT va turtta rele ishtirot etadi. Sxema qimmatroq, lekin ishonchliligi yuqori.



6.2-rasm. To‘lik yulduz sxemasi.

2. To‘liq bo‘limgan yulduz sxemasi (6.3-rasm).

Tok transformatorlari A va C fazalarda o‘rnatilgan, K_{sx}=1. Bu sxemalar betaraf nuqtasi izolyasiya qilingan tarmoqlarda qo‘llaniladi. Bir fazali qisqa tutashuvlarni bunday tarmoqlarda o‘chirish shart emas. Ushbu asosda bajarilgan himoya fazalararo qisqa tutashuvlarning barcha turlariga ta’sir javob bera oladi.



6.3 – rasm. To‘liq bo‘limgan yulduz sxemasi (uch releli).


3. Releni toklarning ayirmasiga ulash sxemasi (6.4-rasm).

Reledan A va C fazalarga o‘rnatilgan tok transformatorlarning ikkilamchi cho‘lg‘amlaridagi toklarning ayirmasiga teng tok o‘tadi.

$$I_p = I_a - I_c ; \quad K_{cx} = \sqrt{3} .$$

Sxema sodda, arzon bo‘lganligi bilan birgalikda sezgirligi avvalgi sxemalarga qaraganda pastroq.

Sezgirligi va arakat zonasini shikastlangan fazalarning kombinatsiyasiga bog‘liq. Masalan, A va C fazada qisqa tutashuv bo‘lsa sezgirlik A va B (B va C) fazalardagi qisqa tutashuvga nisbatan 2 martta yuqori, shu sababli bu usuldagি sxemalarni liniyalarning 3-pog‘onalik himoyasida ishlatish maqsadga muvofiq emas.




6.4 – rasm. Releni toklar ayirmasiga ulash sxemasi.

4. Tok transformatorlarini uchburchak va relelarni yulduz usulida ulash sxemasi (6.5-rasm).

Tok transformatorlarining ikkilamchi cho‘lg‘amlari har xil uchlari bilan ketma-ket ulanib uchburchak hosil qiladi. Bu uchburchakning qirralariga o‘zaro yulduz usulida ulangan relelar ulanadi.

Simmetrik rejimda va 3 fazali qisqa tutashuvda reledagi tokdan $\sqrt{3}$ martta tok o‘tadi.



6.5 – rasm. TT larni uchburchak, relelarni yulduz usulida ulash sxemasi.

Ushbu sxemaning xossalari.

- 1) shu usul qo‘llangan himoya qisqa tutashuvning barcha turlariga ta’sir javob beradi;
- 2) reledagi tokning faza tokiga nisbatan qisqa tutashuvning turiga qarab o‘zgaradi;
- 3) nol ketma-ketligi toklari uchburchakdan tashqari chiqmaydi.

Ish dasturi

1. Tok transformatorining tuzilishi, stendning sxemasi (6.6-rasm).
2. TT ikkilamchi cho‘lg‘amlarini va releni nol sim bilan to‘liq yulduz usulida ulang va tekshiring(6.2-rasm)
3. TT ikkilamchi cho‘lg‘amlarini va releni to‘liq bo‘lmagan yulduz usulida ulang va tekshiring (6.3-rasm)
4. Releni toklar ayirmasiga ulang (6.4-rasm) va tekshiring.
5. TTning ikkilamchi cho‘lg‘amlarini uchburchak, releni yulduz usulida ulang (6.5-rasm) va tekshiring.

Sinashda bajariladigan ishlar tartibi

1. Sinash sxemasi (6.6-rasm) bilan tanishib chiqing (ilovaga qarang) Stend 220 V kuchlanishli tarmoqdan SF avtomat orqali ta'minlanadi. Yuklamalar R_A , R_B , R_C ga bir qutbli S_O , S_A , S_B , S_C tumblerlar orqali kuchlanish beriladi.
1TA_A, 1TA_B, 1TA_C tok transformatorlar reostatlar bilan ketma-ket ulangan, ikkilamchi cho'lg'amlarning ochiq klemmalariga avval ampermetrlarni ulab (6.2-6.5 - rasmlar asosida) keyin stendni manbara ulash kerak. Laboratoriya davomida S_O , S_A , S_B , S_C tumblerlar yordami bilan qisqa tutashuvning har xil turlariga taqlid qilinadi.
2. Sinov sxemasining yig'ing (6.6-rasm).
Undagi shtrix chiziqlar bilan ko'rsatilgan zanjirlarnigina ulang, chunki qolganlari sinov uchun tayyor. Barcha uzib-ulagichlarni – SA1, SA2, SA3, SA8-o'rta holatga o'rnating. 1TA_A, 1TA_B, 1TA_C, 2TA_A va 2TA_C tok transformatorlarining birlamchi cho'g'lam zanjirlariga shtekkerlarni joylashtiring.
3. SF avtomatni yoqing, SB1 knopkani bosib manbani ulang.
4. S_A , S_B , S_C tumblerlarni qo'shib uch fazali qisqa tutashuvlarni taqlidan hosil qiling. Ampermetr ko'rsatgichlarini jadvalga yozib oling.
5. S_A , S_B , S_C , S_O tumblerlarni yoqib ketma-ket ikki fazani yerga ulash, ikki fazali va bir fazali qisqa tutashuvlarni taqlidan hosil qilib, 4-punktdagidek o'lchovlarni bajaring, natijalarni jadvalga yozib boring.
6. SF avtomat yordamida stendni o'chiring.
7. Tok transformatorlarining transformatsiya koefitsiyentini aniqlang;
$$n_{TT} = \frac{I_I}{I_{II}} = \frac{I_A}{i_a}.$$
8. Sxema koefitsiyentini aniqlang;
$$K_{sx} = \frac{i_{pa}}{i_a} = \frac{i_{pb}}{i_b} = \frac{i_{pc}}{i_c}.$$
9. Sinov sxemalarini 3,4,5- rasmlar asosida yig'ing. 3-8-puntlardagi ishlarni har qaysi sxema uchun bajaring.

6.1-jadval


Q.T turlari	O‘lchanilayotgan kattaliklar																	
	I _A	I _B	I _C	i _a	i _b	i _c	i ₀	i _{pa}	i _{pb}	i _{pc}	Φ _{AI}	Φ _{BI}	Φ _{CI}	Φ _{ai}	Φ _{bi}	Φ _{ci}	Φ _{pa}	Φ _{pb}

Hisobotni rasmiylashtirish tartibi

1. O‘lchov asboblarining nomlari va turlari.
2. Ishning maqsadi va dasturi.
3. Sinov sxemalari
4. O‘lchov natijalari yozilgan jadvallar.
5. Tok transformatorlarining birlamchi va ikkilamchi toklari vektor diagrammasi.
6. Xulosalar.

Nazorat savollari.

1. Sxema koeffitsiyenti nima?
2. TT va relening barcha ularash sxemalari afzalliklari, kamchiliklari va ishlatalish joyi haqida gapirib bering.
3. Qisqa tutashuvning har xil turlari uchun ularash sxemalariga mos bo‘lgan toklarning vektor diagrammalarini chizing.
4. TT ning soni tarmoqning betaraf nuqtasi holatiga bog‘liqligini tushuntiring



6.6 – rasm. TT larni sinash sxemasi.

7-LABORATORIYA ISHI

Tokli himoyalalar

Ishdan maqsad: Sabr vaqtsiz tokli kesim, sabr vaqtli tokli kesim va maksimal tok himoyalalarini amalda sinash.


Qisqa nazariy ma'lumot. Qisqa tutashuvning asosiy belgilaridan biri bu o'tkazgichlarda tokning meyoridan juda katta miqdorda oshib ketishidir. Ushbu holat tokli himoyalarni qo'llashda foydaniladi. Tokli himoyalalar fazalardagi toklarni o'ta oshib ketishidan ishga tushadi. Tokning oshishiga ta'sir javob beruvchi rele sifatida maksimal tok releleri qo'llaniladi.

Tokli himoyalalar ikki turga: maksimal tok himoyalari va tokli kesim turlariga bo'linadi. Ushbu himoyalalar o'rtasidagi asosiy farqni tanlovchanlikni ta'minlash belgilaydi.

Maksimal tok himoyalalarining tanlovchanligi sabr vaqt orqali amalga oshiriladi. Tokli kesimlarning tanlovchanligi ishlash toklarini tegishli miqdorda belgilash orqali amalga oshiriladi.

Maksimal tok himoyalari bir tomonlama ta'minlanayotgan tarmoqlarning asosiy himoyasi hisoblanadi. Murakkab tuzilishli tarmoqlarda maksimal tok himoyasi alohida hollarda yordamchi himoya sifatida qo'llaniladi.

Bir tomonlama ta'minlanayotgan tarmoqlarda maksimal tok himoyasi manba tarafdan har bir tarmoqning boshida o'rnatiladi. Himoyaning bunday joylashishida har bir tarmoqning o'zining himoya zonasiga ega bo'ladi, natijada tarmoqning o'zida hamda ushbu tarmoqdan ta'minlanayotgan podstansiya shinasida shikastlanishlar sodir bo'lganda himoyalanuvchi tarmoq o'chirliladi (7.1-rasm).



7.1 – rasm. Bir tomonlama ta'minlanayotgan radial tarmoqning maksimal tok himoyalari: a)-himoyaning joylashuvi; b)-pog'onali tamoyil bo'yicha ishlovchi himoyaning sabr vaqt bo'yicha kelishtirilishi.

Maksimal tok himoyalaringin sabr vaqtleri istemolchilardan manbaga tomon ortib boruvchi ko‘rinishida tanladi (7.1 b- rasm).


Maksimal tok himoyalari ikki va uch fazali, ta’sir etish usuli bo‘yicha bevosita va bilvosita ko‘rinishida bo‘ladi.

Operativ zanjirlarni ta’minlash bo‘yicha bilvosita maksimal tok himoyalari o‘zgarmas va o‘zgaruvchan operativ tokli turlarga bo‘linadi.

Tokli kesim qisqa tutashuvni tez o‘chirish uchun xizmat qiluvchi tokli himoyalarning bir turi hisoblanadi. Tokli kesim sabrsiz ta’sir etuvchi hamda sabr vaqtli tokli ($0,3\text{-}0,6$ s) kesimga bo‘linadi.

Sabrsiz ta’sir etuvchi tokli kesim himoyalanayotgan elementning ma’lum bir bo‘lagini himoyalasa, sabr vaqtli tokli kesim ushbu elementning qisqa kutish hisobiga uni to‘lalagicha himoyalaydi.

Tokli kesimlarning tanlovchanligi oshirish ularning ishlash zonasini cheklash hisobiga erishiladi. Ushbu zona tarmoqning aralash qismlaridagi himoyalarning ishlash vaqtleri tokli kesim vaqtiga teng yoki katta bo‘lgan qismlarida tokli kesimni ishlamasligi sharti asosida aniqlanadi. Buning uchun tokli kesimning ishlash toki himoyadan o‘tayotgan tarmoq oxiridagi qisqa tutashuv tokidan katta bo‘lishi lozim (7.2-rasmdagi tarmoq AC qismining C nuqtasi).



7.2 – rasm. Tokli kesimning ishlash tamoyili.

Tokli kesimning ishlash zonasini bunday cheklash qisqa tutashuv tokining qisqa tutashuv nuqtasigacha bo‘lgan masofaga bog‘liqligi bilan izohlanadi (7.2-rasm).

$$I_k = \frac{E_t}{x_t + x_{l,k}} ;$$

bu yerda E_c - tizim generatorlarining ekvivalent elektr yurituvchi kuchi; x_c va $x_{l,k}$ qisqa tutashuv nuqtasigacha bo'lgan energotizim hamda liniyalar qarshiliklari.

Tanlovchanlik sharti bo'yicha tokli kesim C nuqtadagi qisqa tutashuvda ishlamasligi lozim, (7.2-rasm) ushbu shartni qanoatlantirish uchun qo'yidagi tengsizlik qabul qilingan.

$$I_{h,i} \succ I_{K(\tilde{N})}$$

Shunda C nuqtadan yuqori qismlardagi qisqa tutashuvlarda himoya ishga tushmaydi. Agarda AC qismida qisqa tutashuv sodir bo'lsa himoya faqat AB qismdagi qisqa tutashuvlarda ishga tushadi.

Tokli kesim bir tomonlama va ikki tomonlama ta'minlanayotgan radial tarmoqlarda qo'llaniladi.

Ish dasturi

1. Maksimal tok himoyalari va tokli kesim himoyalarining sxemasi bilan tanishish.
2. Maksimal tokli himoya, sabr vaqtli va sabr vaqtsiz tokli kesim sxemalarini laboratoriyada sinash.
3. Sabr vaqtli tokli kesimning turli hil sabr vaqt oralig'ida laboratoriyada sinash.

Sinashda bajariladigan ishlar tartibi

7.1. Sinash sxemasi bilan tanishib oling. Sxemada faqat uziq-uziq liniyalar bilan ko'rsatilgan zanjirni yig'ing, qolgan zanjirlar sinashga tayyor (7.3-rasm).

7.2. Maksimal tok himoyani sinash.

7.2.1. Laboratoriya stendidagi PT-40, PB-200, PII-23 va PY-21 relelarining qopqoqlarini yeching va relelarning kontakt tizimlarini tekshirib chiqing.

7.2.2. PB-200 vaqt relesida 1 sekundli o'rnatma vaqtini o'rnatning.

7.2.3. Sxemada ko'rsatilgan uziq-uziq chiziqlar asosida sxema yig'ilgandan so'ng SF avtomatni qo'shib stendga kuchlanish bering.

7.2.4. «S» tubmlerni ishlash holatiga keltirib, laboratoriya avtotransformatori yordamida PT-40 relesiga berilayotgan tok miqdorini rele ishga tushguncha (kontaktlarni ulanishi) oshirib boring.


7.2.5. PT-40, PB-200 va РП-23 relelar ketma-ket ishlagandan so‘ng elektrosekundomer ko‘rsatkichi to‘xtaydi va himoyaning ishlash vaqtini elektrosekundomer ko‘rsatkichi orqali aniqlanadi. Himoyani ishlaganligini PY-21 relesi tasdiqlaydi.

7.2.6. Huddi shu tartibda PB-200 relesining o‘rnatma vaqtini 1,5 s, 2 s, 2,5 s bo‘lgan hollar uchun laboratoriya 2.4 va 2.5 punktlar qaytadan bajariladi.

Olingan natijalarini 7.1-jadvalga kiriting.

7.1-jadval

PB-200 vaqt relesining o‘rnatma vaqtlari, s	1	1,5	2	2,5
Himoyaning ishlash vaqtini, s				



7.3-rasm. Maksimal tokli himoyasining sinash sxemasi.

7.3. Tokli kesimning ishlash vaqtini sinash.

7.3.1. Laboratoriya stendidagi PT-40, РП-23 va РУ-21 relelarining qopqoqlarini eching va relelearning kontakt tizimlarini tekshirib chiqing.

7.3.2. Sxemada ko‘rsatilgan uziq-uziq chiziqlar yig‘ilgandan so‘ng SF avtomatni qo‘shib stendga kuchlanish bering.


7.3.3. «S» tubmlerni ishlash holatiga keltirib, laboratoriya avtotransformatori yordamida PT-40 relesiga berilayotgan tok miqdorini rele ishga tushguncha oshirib boring.

7.3.4. PT-40 va РП-23 relelar ketma-ket ishlaganda elektrosekundomer ko‘rsatkichi to‘xtaydi va himoyaning ishlash vaqtini elektrosekundomer ko‘rsatkichi orqali aniqlanadi. Himoyani ishlaganligini РУ-21 relesi tasdiqlaydi.

Olingan natijalarini 7.2-jadvalga kriting.

7.2-jadval

Himoyaning ishlash vaqtisi, s				
-------------------------------	--	--	--	--



7.4-rasm. Tokli kesimni sinash sxemasi.

Hisobotni rasmiylashtirish tartibi

1. Sinov sxemalari.
2. O‘lchov natijalari yozilgan jadvallar.
3. Olingan natijalar bo‘yicha xulosalarni keltiring.

Nazorat savollari.

1. Maksimal tokli himoyaning tanlovchanligi nimaga bog‘liq?
2. Tokli kesimning qanday turlarini bilasiz?
3. Maksimal tokli himoyaning ishlash tokini tanlash shartlarini tushuntiring?
4. Tokli kesimning ishlash tokini tanlash shartlarini tushuntiring?
5. Ikki tomonlama ta’milanayotgan liniyalarda tokli himoyaning ishlash tamoyilini tushuntirib bering?

ADABIYOTLAR.

1. Rele himoyasi va avtomatikasi fanidan ma’ruzalar matni. ToshDTU. «Elektr ta’minoti» kafedrasи. 2007 y.
2. Булычев А.В., Наволочный А.А. «Релейная защита в распределительных электрических сетях». Москва ЭНАС, 2011 г.
3. Копьев Владимир «Релейная защита» Томск, 2009 г.
4. Шабад М.А. «Расчеты релейной защиты и автоматики распределительных сетей». Издание третье, переработанное и дополненное. Энергоатомиздат Ленинградское отделение, 2012 г.
5. Андреев В.А. «Релейная защита и автоматика систем электроснабжения». Москва «Высшая школа», 2006 г.
6. Басс Э.И., Дорогунцев В.Г. «Релейная защита электроэнергетических систем» Москва, Издательство МЭИ, 2002 г.
7. Копьев В.Н. «Релейная защита, принципы выполнения и применения». Учебное пособие, Томск, 2006г.
8. Овчинников В.В., Удрис А.П. «Реле РНТ и ДЗТ в схемах дифференциальных защит». НТФ «Энергопрогресс», «Энергетик», 2004 г.

Mundarija

1- laboratoriya ishi	PT-40 turidagi elektromagnit tok relelarini sinash.....	3
2- laboratoriya ishi	PH-50 turidagi elektromagnit kuchlanish relesini sinash.....	9
3- laboratoriya ishi	Vaqt relesini sinash.....	13
4- laboratoriya ishi	Oraliq va ko‘rsatkich relelarini sinash.....	19
5- laboratoriya ishi	PT-80 turidagi induksion tok relesini sinash.....	25
6- laboratoriya ishi	Tok transformatorlari va relelearning ulanish sxemalarini tekshirish.....	33
7- laboratoriya ishi	Tokli himoyalar.....	40
Adabiyotlar.....		45

Muharir: Sidikova K.A.

Musahih: Bahromova T.N.